

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILIVA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

ABDULLA QODIRIY

HAYOTI VA IJODINI O‘RGANISH BO‘YICHA

Dastur va uslubiy qo‘llanma

Toshkent – 2020

Mazkur dastur va uslubiy qo‘llanma iste’dodli adib Abdulla Qodiriyning hayoti va ijodini oliy ta’lim muassasalarida o‘qitish uchun ishlab chiqildi.

Dasturda Abdulla Qodiriy hayoti va ijodining barcha jabhalari qamrab olindi. Adib asarlarida ilgari surgan g‘oyalarni talaba-yoshlarga sodda va tushunarli qilib yetkazish maqsadida badiiy asarlari – she’r, drama, hikoya va romanlarining asosiy nuqtalariga murojaat qilinib, ularning bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar bilan hamohang jihatlari dasturga singdirildi.

Mazkur dastur va uslubiy qo‘llanma Abdulla Qodiriy hayoti va ijodini o‘rganish yuzasidan o‘quv mashg‘ulotlarini olib boruvchi oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir:

Shuhrat Sirojiddinov,
filologiya fanlari doktori,
professor

Tuzuvchi:

Bahodir Karimov,
filologiya fanlari doktori,
professor

Taqrizchilar:

Sulton Normamatov,
filologiya fanlari doktori, dotsent

Sirojiddin Ahmedov,
san’atshunoslik fanlari nomzodi

Mazkur uslubiy qo‘llanma Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2020-yil 21-avgustdagi 1-sonli yig‘ilishida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

I. KIRISH

Abdulla Qodiriy hayoti va ijodini o‘qitish bo‘yicha dastur oliy ta‘lim muassasalari uchun mo‘ljallangan. Unda mazkur kursning maqsadi, vazifalari va mazmuni ifodalangan bo‘lib, yozuvchi hayoti va ijodi, adabiy-ma‘rifiy faoliyati, poetik mahoratiga doir qirralari yoritilgan. Dasturda belgilangan mavzular o‘tiladigan turkum mashg‘ulotlar orqali amalga oshiriladi.

II. FAKULTATIV O‘QUV KURSINING MAQSADI

Talaba-yoshlarda milliy qadriyatlarga hurmat ruhini tarbiyalash, ulug‘ ajdodlarimiz bosib o‘tgan hayot yo‘lini o‘rnak sifatida ko‘rsatish, Abdulla Qodiriy hayoti va ijodini o‘rganishning zaruriyatini tushuntirish, iste‘dodli adiblarning o‘zbek adabiyotiga xazinasiga qo‘shga beqiyosi hissasini birgina Abdulla Qodiriy faoliyati misolida ochib berish, yozuvchining bugungi milliy adabiyotimiz, boy madaniy merosimiz xazinasida tutgan o‘rnini, qadr-qimmatini asoslashdan iborat.

III. FAKULTATIV O‘QUV KURSINING VAZIFALARI

- XX asr boshlaridagi Turkistonda kechgan adabiy-ma‘rifiy jarayonlarda Abdulla Qodiriyning tutgan o‘rni va mavqeyini ochib berish;
- Abdulla Qodiriy hayoti va ijodiga doir muhim ma‘lumotlarni tarixiy dalillar asosida xolisona yoritish;
- Abdulla Qodiriyning hayot yo‘li, ilk ijodi, adabiy faoliyatini atroflicha tushuntirish;
- yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ma‘rifat va taraqqiyotga boshlash yo‘lida Abdulla Qodiriy adabiy merosidan foydalanishni targ‘ib etish;
- Abdulla Qodiriy hayot yo‘li va faoliyati asosi bo‘lgan mardlik, haqiqatgo‘ylik, fidoyilik, adolatlilik kabi fazilatlarining ma‘naviy-axloqiy mohiyati va bugungi kun yoshlari kamolotidagi ahamiyatini tushuntirish;
- Abdulla Qodiriyning adib sifatida yaratgan ijod mahsullari – “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” romanlari, hikoyalari mohiyatini, ma‘no-mazmunini, g‘oyaviy maqsadlarini bugungi kun nuqtayi nazaridan tahlil qilish;
- Abdulla Qodiriy hayoti va ijodini o‘zbek hamda dunyo olimlari tomonidan o‘rganilishi masalalarini talqin qilish.

IV. FAKULTATIV O‘QUV KURSINI O‘ZLASHTIRISHGA QO‘YILADIGAN TALABLAR:

- O‘zbek romanchiligi asoschisi, xususan, Abdulla Qodiriy faoliyatining bugungi davr adabiy siyosatiga mos jihatlarini anglab yetishlari;
- Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi yuzasidan ma‘lumotga ega bo‘lishlari, o‘zlashtirgan bilimlarni to‘g‘ri mushohada eta olishlari;

- Abdulla Qodiriyning adabiy faoliyati, jumladan, romanlari, qodiriyshunoslik tarixi bilan tanishish, ularda aks ettirilgan g‘oyalarni talqin qila olishlari;
- Abdulla Qodiriyning adib sifatidagi qiyofasini ochib beruvchi romanlari, hikoyalari va publitsistik asarlarini o‘rganish;
- Abdulla Qodiriy tashabbusi bilan maydonga kelgan “Mushtum” jurnali materiallari bilan tanishish, ularning milliy matbuotdagi o‘rni haqida tasavvurga ega bo‘lishlari lozim.

V. FAKULTATIV O‘QUV KURSINING BOSHQA FANLAR BILAN BOG‘LIQLIGI

Fakultativ o‘quv kursi – “Milliy uyg‘onish adabiyoti”, “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “Tarix”, “Madaniyatshunoslik”, “Milliy matbuot tarixi” va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan o‘zaro aloqador hisoblanadi.

VI. FAKULTATIV O‘QUV KURSINING HAJMI VA MAZMUNI

Fakultativ o‘quv kursining hajmi:

N	Mashg‘ulot turi	Ajratilgan soat
1	Ma’ruza	8
2	Muloqot	4
3	Munozara	4
4	Taqdimot	4
	JAMI:	20

Mashg‘ulotlarning mavzulari, mazmuni, kutiladigan natija va ularga ajratilgan soatlarning miqdori:

	Mavzular	Mazmuni	Kutiladigan natija	soat
	MA’RUZALAR			8
1	Abdulla Qodiriy hayoti yo‘li	Abdulla Qodiriy hayoti, u yashagan davr ijtimoiy-siyosiy jarayonlari haqida ma’lumot beriladi. Abdulla Qodiriy ijodini o‘rganishning ahamiyati tushuntiriladi. Abdulla Qodiriy dunyoqarashi kengayishida muhim ta’sir ko‘rsatgan omillar izohlanadi.	Jadidchilik harakati mazmuni haqida Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi misolida tushuncha hosil qiladilar, XX asr boshlaridagi davr ijtimoiy-siyosiy jarayonlari haqida tasavvurga ega bo‘ladilar. Ijodkor dunyoqarashi kengayishida muhim ta’sir ko‘rsatgan omillar haqida	2

			xulosa chiqarish ko'nikmalari hosil bo'ladi.	
2	Abdulla Qodiriyni ng ilk ijodi	Bunda yozuvchining matbuotdagi dastlabki chiqishlari, she'rlari, "Juvonboz", "Uloqda", "Jinlar bazmi" va boshqa hikoyalari o'rganiladi.	XX asr boshlaridagi adabiy muhit, matbuotning maydonga kelishi, Abdulla Qodiriyni ijodining ilk pallasida yozgan asarlari kabi masalalarni anglab yetadilar.	2
3	Abdulla Qodiriyni romanlari	Abdulla Qodiriyni "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" romanlari bilan tanishtiriladi. Adib romanlarining o'ziga xos jihatlari, unda aks ettirilgan g'oyalar tahlil qilinadi.	Abdulla Qodiriyni "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" romanlari haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Romanda aks etgan obrazlar, tarixiy muhit, adibning badiiy mahoratini tushunib yetadilar.	4
SUHBAT-MULOQOTLAR				4
1	Abdulla Qodiriyni she'rlari, "Baxtsiz kuyov" dramasi	Turkiston madaniy-ma'rifiy hayotida jadid adiblarining tutgani o'rni, Abdulla Qodiriyni "To'y", "Fikr aylagil" va boshqa she'rlari, "Baxtsiz kuyov" dramasi bilan birgalikda o'zaro qiyosiy ravishda o'rganiladi. Bu asarlarida ilgari surilgan g'oyalar tahlil qilinadi.	Talabalar Abdulla Qodiriyni ijodi bilan Turkiston jadidchiik harakatning o'zaro uyg'un jihatlari, she'riy merosi va dramatik asari yuzasidan yangi bilimlarga ega bo'lishadi.	2
2	Abdulla Qodiriyni ning publitsistik asarlari	Abdulla Qodiriyni matbuotdagi faoliyati, "Mushtum" jurnalidagi publitsistik maqolalar yozgani, buning natijasida "feletonlar qiroli" nomini olgani va adib yozgan maqolalarning qadriyatini muhokam qilinadi.	Abdulla Qodiriyni ijodining alohida bir bosqichi yuzasidan tasavvurga ega bo'ladi. Adibning publitsistik merosi o'z davri ijtimoiy-ma'rifiy hayoti uchun naqadar muhim ahamiyat kasb etganidan xabardor bo'ladi. Yozuvchining adabiy maqolalari bugungi kun muammolari bilan bog'lab talqin etish ko'nikmalari paydo bo'ladi.	2
MUNOZARALAR				4
1	"O'tkan	Abdulla Qodiriyni ning	Talabalar san'atning ikki turi	2

	kunlar” romani va uning kino talqini	“O‘tkan kunlar” romani juda ko‘p nashr bo‘lgani, unig ikki marta kinotalqini maydonga kelgani va bu ikki san’at turiga mansub asarlar o‘rtasidiga o‘xshash va farqli jihatlar yuzasidan ma’lumotlar beriladi.	va uning spetsifik xususiyatlari, roman va kino talqidagi eng muhim qirralar yuzasidan yangi bilimlarga ega bo‘lishadi.	
2	“Obid ketmon” qissasi va tarixiy davr	Adibning ikki mashhur tarixiy romanidan keyin zamonaviy mavzuda maydonga kelgan “Obid ketmon” qissasining mazmun-mohiyati, qissada XX asrning 30-yillariga xos hayot tarzi aks ettirilganiga urg‘u beriladi.	Talabalar adibning bu qissasi muhokamalaridan keyin badiiy asarda zamon tasviri, badiiy asarning ijtimoiy mazmuni, shuningdek, yaqin tarixda bo‘lib o‘tgan jamiyat hayotidagi o‘zgarishni badiiy asar vositasida anglab yetadilar.	2
TAQDIMOT				4
1	Abdulla Qodiriy asarlarining xorij tillariga tarjimalari	Abdulla Qodiriyning o‘zi tarjima bilan shug‘ullangani va adib asarlarining yaqin qardosh va uzoq xorij tillariga tarjima qilingani taqdimot yo‘sinida misollar bilan tushuntiriladi.	Talabalar o‘zbek tarjima adabiyoti tarixi, adib asarlari dunyoning turli tillariga tarjima qilingani to‘risida kengqamrovli bilimlarga ega bo‘lishadi.	2
2	Abdulla Qodiriy dunyo olimlari nigohida	Abdulla Qodiriy ijodining o‘rganilishi tarixi bir asrga tengligi, bunda dunyo olimlarining olib borgan tadqiqotlari ham alohida o‘rin tutishi talqin qilib beriladi.	Abdulla Qodiriy ijodiga o‘zek olimlari, shu bilan birga xorijlik Edvard Olvort, Ingeborg Baldauf kabi olimlarning munosabat bildirib yozgan asarlari mazmun-mohiyatini anglab yetadi.	2

**“ABDULLA QODIRIY HAYOTI VA IJODI” KURSINING
SILLABUSI**

Fanning qisqacha tavsifi					
OTMning nomi va joylashgan manzili:					
Kafedra:	O‘zbek tili va adabiyoti				
Ta’lim sohasi va yo‘nalishi:					
Fanni (kursni) olib boradigan o‘qituvchi to‘g‘risida ma’lumot:			e-mail:		
Dars vaqti va joyi:			Kursning davomiyligi:		
Individual grafik asosida ishlash vaqti:					
Fanga ajratilgan Soatlar	Auditoriya soatlari			Mustaqil ta’lim:	30
	Ma’ruza:	8	Seminar		
Fanning boshqa fanlar bilan bog‘liqligi (prerekvizitlari):	Fakultativ o‘quv kursi – “Milliy uyg‘onish adabiyoti”, “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “Pedagogika”, “Tarix”, “Madaniyatshunoslik”, “Milliy matbuot” va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan o‘zaro aloqador hisoblanadi.				
Fanning mazmuni					
Kursning maqsad va vazifasi:	<p>Fanning asosiy maqsadi talaba-yoshlarda milliy qadriyatlarga hurmat ruhini tarbiyalash, ulug‘ ajdodlarimiz bosib o‘tgan hayot yo‘lini o‘rnak sifatida ko‘rsatish, Abdulla Qodiriy hayoti va ijodini o‘rganishning zaruriyatini tushuntirish, iste’dodli adiblarining o‘zbek adabiyotiga qilgan xizmatini birgina Abdulla Qodiriy faoliyati misolida ochib berish, yozuvchining bugungi milliy adabiyotimiz, boy madaniy merosimiz xazinasida tutgan o‘rnini, qadr-qimmatini asoslashdan iborat.</p> <p style="text-align: center;">Fanning vazifasi:</p> <p>– XX asr boshlaridagi Turkistonda kechgan adabiy-ma’rifiy jarayonlarda Abdulla Qodiriyning tutgan o‘rni va mavqeyini</p>				

	<p>ochib berish;</p> <ul style="list-style-type: none"> – Abdulla Qodiriy hayoti va ijodiga doir muhim ma'lumotlarni tarixiy dalillar asosida xolisona yoritib berish; – Abdulla Qodiriyning hayot yo'li, ilk ijodi, adabiy faoliyatini atroflicha ochib berish; – yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ma'rifat va taraqqiyotga boshlash yo'lida Abdulla Qodiriy adabiy merosidan foydalanishni targ'ib etish; – Abdulla Qodiriy hayot yo'li va faoliyatiga asos bo'lgan mardlik, haqiqatgo'ylik, fidoyilik, adolatlilik kabi fazilatlarining ma'naviy-axloqiy mohiyati va bugungi kun yoshlari kamolotidagi ahamiyatini tushuntirish; – Abdulla Qodiriyning adib sifatida yaratgan ijod mahsullari – “O'tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” romanlari, hikoyalari mohiyatini, ma'no-mazmunini, g'oyaviy maqsadlarini bugungi kun nuqtayi nazaridan tahlil qilish; – Abdulla Qodiriy hayoti va ijodini o'zbek hamda dunyo olimlari tomonidan o'rganilishi masalalarini talqin qilish.
Talabalar uchun talablar	<p>Fakultativ kursni o'zlashtirish jarayonida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> - o'zbek romanchiligi asoschisi, xususan, Abdulla Qodiriy faoliyatining bugungi davr adabiy siyosatiga mos jihatlarini anglab yetishlari; - Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi yuzasidan ma'lumotga ega bo'lishlari, o'zlashtirgan bilimlarni to'g'ri mushohada eta olishlari; - Abdulla Qodiriyning adabiy faoliyati, jumladan, romanlari, qodiriyshunoslik tarixi bilan tanishib, ularda aks ettirilgan g'oyalarni talqin qila olishlari; - Abdulla Qodiriyning adib sifatidagi qiyofasini ochib beruvchi romanlari, hikoyalari va pulblitsistik asarlarini o'rganish; - Abdulla Qodiriy tashabbusi bilan maydonga kelgan “Mushtum” jurnali materiallari bilan tanishish, ularning milliy matbuotdagi o'rni haqida <i>ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.</i>
Elektron pochta orqali munosabatlar tartibi	Professor-o'qituvchi va talaba o'rtasidagi aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin.
<p>Sillabus taqvim: O'tiladigan mavzular ro'yxati:</p>	

№	Mavzular	Ma'ruza	Suhbat-muloqot	Munozara	Taqdimot
1	Abdulla Qodiriy hayoti yo'li	2 soat			
2	Abdulla Qodiriyning ilk ijodi	2 soat			
3	Abdulla Qodiriy romanlari	4 soat			
4	Abdulla Qodiriy she'rlari, "Baxtsiz kuyov" dramasi		2 soat		
5	Abdulla Qodiriyning publitsistik asarlari		2 soat		
6	"O'tkan kunlar" romani va uning kino talqini			2 soat	
7	"Obid ketmon" qissasi va tarixiy davr			2 soat	
8	Abdulla Qodiriy asarlarining xorij tillariga tarjimalari				2 soat
9	Abdulla Qodiriy dunyo olimlari nigohida				2 soat
	Jami	8 soat	4 soat	4 soat	4 soat

Asosiy adabiyotlar:	<p>1. Карим Б. Абдулла Қодирий феномени (монография). Тошкент. «Info Capital Group» нашриёти. 2019.</p> <p>2. Абдулла Қодирий. Асарлар. 5 жилдлик. Тошкент. "Info Capital Group". 1917 йил.</p>
Qo'shimcha adabiyotlar:	<p>1. Абдулла Қодирий. Тошпўлат тажанг нима дейди? Калвак махзумнинг хотира дафтарида. – Т., 1993.</p> <p>2. Абдулла Қодирий. Ўткан кунлар. Мехробдан чаён. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1994.</p> <p>3. Абдулла Кадыри. Минувшие дни. Роман. Ташкент. Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма. 1984.</p> <p>4. Абдулла Қодирий. Суддаги нутқ // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1989 йил. 1 декабрь.</p> <p>5. Абдулла Қодирий замондошлари хотирасида. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1986.</p> <p>6. Aziz Merhan. Abdulla Qodiriy ve Ozbek</p>

Romaninin Dogusu. Ankara. Grafiktr. 2008.

7. Балдауф И. XX аср ўзбек адабиётига чизгилар. – Т.: Маънавият, 2001.

8. Боқий Н. Қатлнома. – Т.: Нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1992.

9. Заки Валидий Тўғон. “Буюк турк эли Туркистон ва яқин тарихи” (2-нашри). Истанбул. 1981.

10. Карим Б. Қодирий қадри. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2003.

11. Карим Б. Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур. – Т.: “Академнашр”, 2014.

12. Карим Б. “Ўткан кунлар” ибрати. Рисола. Тошкент. “Mashhur-press” нашриёти. 2019.

13. Карим Б. Икки даҳо – икки бебаҳо. Тошкент. Ўзбекистон миллий энциклопедияси” нашриёти. 2020 йил.

14. Клайнмихел З. Ёзувчи Абдулла Қодирийнинг Ўзбекистон маънавий ва маданий ҳаётидаги ўрни. Bamberg Mittelasiestudien. – Berlin, 1994.

15. Мирвалиев С. Абдулла Қодирий кашфиёти. – Т.: MASHHUR-PRESS, 2018.

16. Норматов У. Қодирий боғи. – Т.: Ёзувчи, 1995.

17. Норматов У. “Ўткан кунлар” ҳайрати. – Т.: Ўқитувчи, 1996.

18. Ойбек. Абдулла Қодирийнинг ижод йўли. – Т.: ЎзССР фанлар комитетининг нашриёти, 1936.

19. Олмос Улви. Ўзбек адабиёти. Боку, “Илм ва таҳсил” нашриёти, 2016.

20. Ризаев, Ш. Жадид драмаси. Тошкент: Шарқ, 1997.

21. Eden Nabi. Transitional Central Asian Literature: Tajik and Uzbek prose fiction from 1909 to 1932. Columbio University, 1975.

22. Edvard Allwortn. Uzbek Literary politics. London-Paris, 1964.

23. Қодирий Ҳ. Отам ҳақида. – Т.:

	<p>Адабиёт ва санъат, 1983.</p> <p>24. Абдулла Қодирий замондошлари хотирасида. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986.</p> <p>25. Қодирий Ш. 37-хонадон. Тошкент. “DAVR PRESS”, нашриёти. 2009.</p> <p>26. Қосимов Б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Маънавият, 2004.</p> <p>27. Қўшжонов М. Абдулла Қодирийнинг тасвирлаш санъати. – Т.: Фан, 1966.</p> <p>28. Қўшжонов М. Ўзбекнинг ўзлиги. – Т.: Халқ мероси, 1994.</p>
Fan dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti	<p>1. www.ziyonet.uz</p> <p>2. www.e-tarix.uz</p> <p>3. www.ziyuz.om</p>

MA'RUZA MASHG'ULOTINING TEXNOLOGIK XARITASI

Ish bosqich-lari va vaqti	Faoliyat	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. O'quv mashg'uloti -ga kirish. 10 daqiqa	O'qituvchi mashg'ulot mavzusini e'lon qiladi. Dars maqsadini aniq tushuntiradi, har bir bosqich uchun ajratilgan vaqt hajmini aniqlaydi, darsdan kutilayotgan natijalarni eslatadi.	Talabalar mashg'ulot mavzusi hamda bosqichlari, qoidalari, kutilayotgan natijalarni aniq tushunib oladilar. Jamoaviy ta'limiy faoliyatga tayyor bo'ladilar, mavzuga nisbatan qiziqish shakllanadi.
2-bosqich. Asosiy bosqich. 55 daqiqa	Ma'ruza mashg'uloti rejasi va tuzilishiga muvofiq ta'lim jarayonini tashkil qiladi. Tipologiya tushunchisi bilan tanishtiradi. Umumiy tipologik metodni tavsiflaydi. Tillarni geneologik guruhlash qonunlarini tushuntiradi. Morfologik tipologiya usullarini izohlaydi.	Mashg'ulot mavzusi bo'yicha nimalarni bilishlari, nimalarni bilishni istashlari aniqlashtirib olinadi va bunda jadvalning 3-ustuni darsning yakuniy bosqichida to'ldiriladi. Talabalarda ta'limiy faoliyatga nisbatan motivatsiya rivojlanadi, o'quv-bilish faoliyatlari to'g'ri

	<p>(ma'ruza matni tayanch o'quv axborotida keltiriladi). Ma'ruzani bayon qilish davomida interfaol o'qitish usullarini qo'llash orqali talabalarni faollashtirishga erishadi, talabalarga muammoli savollar bilan murojaat qiladi.</p>	<p>rejalashtiriladi. Ularda ta'limiy maqsadlar asosida hamkorlikda ishlash, izlanish ko'nikmalari tarkib topadi. Talabalar o'qituvchi tomonidan berilgan muammoli savollarga shaxsiy fikr, nuqtai nazarlaridan kelib chiqqan holda erkin fikr bildiradilar. O'rganayotgan muammo yuzasidan shaxsiy fikr, munosabat tarkib topadi, talabalar faollashadi. Taqdimotda keltirilayotgan ma'ruza matnini tezislar shaklida yozib oladilar. Talabalar faol hamkorlikda ta'lim olishni o'rganadilar, ularda onglilik va masuliyatlilik kabi kasbiy sifatlar shakllanadi. Refleksiya bosqichida talabalar o'qituvchi tomonidan berilgan muammoli savollar xususida fikrlaydilar, o'z nuqtai nazarlarini bildiradilar.</p>
<p>3-yakuniy bosqich. 10 daqiqa</p>	<p>Talabalar tomonidan ma'ruzada keltirilgan o'quv axborotining o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash maqsadida mavzuga oid kichik esse yozish topshirig'i beriladi. Ilmiy axborot muhokama qilinadi.</p>	<p>Ilmiy axborot yozishda faol ishtirok etadilar.</p>
<p>Mustaqil ta'lim uchun topshiriq. 5 daqiqa</p>	<p>Mavzuni to'liq o'zlashtirish, muloqot vositalarining har biriga misollar tayyorlab kelish.</p>	<p>Mavzu bo'yicha maqola tayyorlaydilar.</p>

VII. KURS YUZASIDAN MASHG‘ULOTLAR VA MUSTAQIL TA’LIM YUZASIDAN KO‘RSATMALAR

O‘qitishda kasbiy yo‘naltirilganlikni amalga oshirishdagi faoliyati.

Ta’lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash yuzasidan o‘qituvchining amaliy faoliyati quyidagi bosqichlar:

- innovatsion texnologiyalarning metodologik asoslarini o‘zlashtirgan holda uni pedagogik amaliyotda qo‘llash yo‘llarini belgilash;

- innovatsion texnologiyalar talablari asosida ta’lim-tarbiya jarayonini loyihalash;

- o‘qitishning barcha shakllari: ma’ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari, auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar, mustaqil ta’limning didaktik maqsadlarini e’tiborga olgan holda innovatsion texnologiyalarni tanlash va joriy etish;

- o‘qitishning asosiy shakllari bo‘lgan ma’ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarida o‘rganiladigan mavzuni mazmunini e’tiborga olgan holda axborot-kommunikatsion va pedagogik innovatsiyalarni uyg‘unlashtirish va amalda qo‘llash;

- mazkur jarayondan olingan natijalarni tahlil qilish, umumlashtirish, talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalaridagi bo‘shliqlarni aniqlash, ularni bartaraf etish yo‘llarini belgilashdan iborat.

Ta’lim tizimida interfaol ta’lim texnologiyalarining quyidagi shakllar mavjud:



Ta'lim innovatsiyalari bir necha turga ajratiladi:

1. Faoliyat yo'nalishiga ko'ra: pedagogik jarayonda yoki ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar.

2. Kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra: radikal, modifikatsiyalangan hamda kombinatsiyalangan innovatsiyalar.

3. O'zgarishlarning ko'lamiga ko'ra: tarmoq (lokal), modul va tizim innovatsiyalari.

4. Kelib chiqish manbaiga ko'ra: jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o'zlashtirilgan innovatsiyalar.

Zamonaviy sharoitda ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li – bu mashg'ulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etish.

“**Interfaol**” tushunchasi ingliz tilida “interat” (rus tilida “interaktiv”) “inter” – o'zaro, ikki taraflama, “at” – *harakat qilmoq, ish ko'rmoq* kabi ma'nolarni anglatadi.

Interfaol ta'lim – ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim hisoblanadi.

Interfaollik ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklaridir.


Mantiqiy nuqtai nazardan interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy subektlarning suhbat, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatning olib borishlarini ifodalaydi.

An'anaviy ta'limda ham, tabiiy ravishda, suhbat asosini axborot tashkil etadi. Ammo axborot uzatishning asosiy manbai o'qituvchining tajribasi bo'lib, bu jarayonda u yetakchilik, dominantlik qiladi, ya'ni u darsning asosiy vaqtida bilimlarni og'zaki tarzida o'quvchi (magistrant)larga yetkazib berishga intiladi. Faollik ko'rsatish o'qituvchigagina xos bo'lib, o'quvchi (magistrant)lar bu vaziyatda sust tinglovchi bo'lib qoladi. Ularning asosiy vazifasi o'qituvchini tinglash, zarur o'rinlarda yozish, savollar bilan murojaat qilinganida javob qaytarish, kam holatlarda ruxsat etilganidagina so'zlashdan iboratdir.

Interfaol ta'limning asosiy belgilari



Bugungi kunda respublika ta'lim muassasalarida interfaol ta'limning quyidagi eng ommaviy texnologiyalar qo'llanilmoqda:



Keyingi yillarda ta'limda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosiy o'rinni egallamoqda. Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab qilinmoqda. O'zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta'lim *shaxsga yo'naltirilgan ta'lim* deb nomlanadi. Ushbu ta'lim pedagog va magistrant o'rtasidagi o'zaro munosabat hamkorlik va tanlash erkinligiga asoslanib, magistrantni qadriyat sifatida e'tirof etilishini uchun sharoit yaratadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining quyidagi turlari farqlanadi: 1. Modulli ta'lim texnologiyasi. 2. Muammoli ta'lim texnologiyasi. 3. Interfaol ta'lim texnologiyasi. 4. Individual ta'lim texnologiyasi. 5. Masofaviy ta'lim texnologiyasi. 6. Kompyuter ta'lim texnologiyasi. 7. Hamkorlik ta'lim texnologiyasi. 8. Loyiha ta'lim texnologiyasi. 9. Dasturiy ta'lim texnologiyasi. 10. Tabaqalashtirilgan ta'lim texnologiyasi. 11. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi. 12. O'yin texnologiyalari. 13. Gender ta'lim texnologiyasi. 14. Quvvatni tejoychi ta'lim texnologiyasi.

Mazkur ta'lim texnologiyalaridan *modulli ta'lim, muammoli ta'lim va interfaol ta'lim texnologiyalarini* faol qo'llash tavsiya qilinadi.

Ta'lim jarayonida faol qo'llanayotgan innovatsion texnologiyalardan biri **keys** stadi hisoblanadi. Keys texnologiyasi bugungi kungacha asosan iqtisod va huquq sohalarida qo'llab kelingan. Hozirgi kunda boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarda foydalanish ham ta'lim samaradorligini oshirishi e'tirof etilmoqda.

Keys-stadi – (inglizcha *as* – to'plam, aniq vaziyat, *stadi* – ta'lim) keysda bayon qilingan va ta'lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagi yechimi variantlarini izlashga yo'naltiradigan haqiqiy yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning tahlil etilishiga asoslanadigan o'qitish metodi.

Keys-stadi usuli qo'llanilgan o'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi
Ishlar bosqichi va mazmuni

Ishlar bosqichi va mazmuni	F a o l i y a t	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
Tayyorgarlik	Tanishish uchun talabalarga keys materiallarini tayyorlaydi va avvalgi mashg'ulotlarda arqatadi.	Keys mazmuni bilan tanishadilar
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish.(5 daq.)	1.1. O'quv mashg'ulotining mavzusi, maqsadi, kutilayotgan natijalar va uni olib borish rejasi bilan tanishtiradi. Keys ahamiyatini va uni kasbiy bilimlarni rivojlantirishga ta'sirini tushuntiradi.	Diqqat qiladilar.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish (10 daq.)	2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida mavzuning asosiy tushunchalari bo'yicha tezkor-so'rov o'tkazadi (ilova). 2.2. Amaliy mashg'ulotda ishlash tartibi, baholash ko'rsatkich va mezonlari bilan tanishtiradi (ilova).	Savollarga javob beradilar. Muhokama qiladilar, aniqlash tiruvchi savollar beradilar.
3-bosqich. Alohida Ishlash. (20 daq.)	3.1. Keys materiallarini muhokama qilishni tashkillashtiradi, ishlash qoidasi, vaziyatlarni tahlil qilish chizmasi, muammolarni ifodalashiga e'tibor berishlariga qaratadi. 3.2. Vaziyatni mustaqil tahlil qilishni, muammoni ifodalashni, yechish yo'llarini aniqlashni, so'ngra uni yechish topshirig'ini beradi	Keys materiallarini muhokama qiladilar, aniqlaydilar, savollar beradilar. Mustaqil ravishda tahlil qilish varag'ini to'ldiradilar, muammoni yechadilar.
4-bosqich. Kichik guruhlarda ishlash (20 daq.)	4.1. Talabalarni kichik guruhlariga bo'ladi va topshiriq beradi: vaziyatni muhokama qilish va tahlil qilib ko'rish, guruh uchun vaziyatni tahlil qilish varag'ini to'ldirish, yechish tartibini ishlab chiqish, topshiriqni yechish, taqdimotga tayyorlanish	Keysni yechish va taqdimot varag'ini tayyorlash bo'yicha harakatlar qiladilar
5-bosqich. Taqdimot (20 daq.)	5.1. Taqdimot, muhokama va guruhlar taqdimotini o'zaro baholashni tashkillashtiradi. Javoblarni sharhlaydi, tahlil qilish va muammoli vaziyatni yechish jarayonida qilingan xulosalarga e'tibor qaratadi.	Guruhlar taqdimot qiladilar. Boshqa talabalar munozarada ishtirok etadilar, savollar beradilar

KONSEPTUAL JADVAL

O'rganilayotgan tushuncha, hodisa, fikrlarni uch va undan ortiq jihat va ko'rsatkichlari bo'yicha taqqoslashni ta'minlaydi hamda yaxshi samara beradi. Tizimli fikrlashga o'rgatish, muammoni tahlil qilish, ma'lumotlarni tuzulmaga keltirish, tizimlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish, o'rganilayotgan hodisalarning muhim belgilarini aniqlash, tadqiqot yo'nalishini belgilash, internetda axborot qidirish uchun tayyanch so'z va iboralarni tanlash maqsadlarida tuziladi.

Jadval quyidagicha tuziladi: gorizontaal bo'yicha taqqoslanadigan tushunchalar, vertikal bo'yicha esa, ularning taqqoslanadigan turli jihat va xossalari joylashtiriladi.

Konseptual jadvalda o'zlashtirilayotgan o'quv materialining ancha qismini ixcham shaklda ifodalanadi. Bunday jadval mashg'ulotning metodik ta'minotini yanada boyitadi. Muayyan matn bo'yicha konseptual jadvallarni mikroguruhlarda aqliy hujumdan foydalanib tuzish va ularni guruh bo'yicha muhokama qilib, eng maqbul variantini qabul qilish amaliy mashg'ulotlarning «anglash» fazasida yaxshi natija berishi mumkin. Konseptual jadval yordamida bir necha kasb yoki mutaxassisliklarni taqqoslash ham mumkin. Dars davomida o'tkazilayotgan munozara davomida talabalarga konseptual jadval tuzish topshirig'ini berish tavsiya etiladi. Bunday jadval tuzishni uyga vazifa berish esa talabalarning mustaqil bilish faoliyatini yanada samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Fakultativ o'quv kursini o'qitishda slaydlar, video, multivideo, qisqa metrajli hujjatli filmlardan foydalanish mumkin. Shuningdek, o'qitishning an'anaviy va ilg'or usullarini, shuningdek, o'qitishning an'anaviy va ilg'or uslublarini, jumladan, ekspress so'rovlar, test so'rovlari, dasturiy o'qitish, davra suhbatlarini o'tkazish, muammoli o'qitish texnik vositalarini qo'llash, ekskursiya va boshqa usullardan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Mustaqil ta'lim-tarbiya jarayoni mashg'ulotlari ma'ruza, muloqot, munozara, taqdimot tarzida tashkil etiladi. Ushbu mashg'ulotlarni quyidagi algoritim (bilish, qo'llash, tahlil qilish va natija) asosida amalga oshiriladi.

Talabalarga fakultativ o'quv kursini zamonaviy usulda o'rgatish, ularning mustaqil bilim olishiga sharoit yaratish hamda olgan bilimni mustaqil ravishda baholash uchun quyidagilardan foydalaniladi:

– “Aqliy hujum”, “Debatlar” “Rreynstorming”, “Klaster” (axborotni yig'ish), “Sinkveyn” (axborotni yig'ish, “Akvarium”, “Charxpalak”, “Gyalar bahsi”, “Matbuot-konferensiyasi” kabi yangi pedagogik texnologiyalaridan foydalanish.

– Talabalarni oldindan tarqatma materiallar bilan ta'minlashga erishish.

– Talabalarning kichik guruhlarga bo'lib, murabbiy-ustozlar rahbarligida mustaqil bilim olishga o'rgatish.

– ma'ruza matnidagi jadval diagramma va raqamli ma'lumotlarni oldindan tayyorlab, guruh talabalariga tarqatish. (Bu usul o'qituvchining vaqtini tejab, talabalarni ortiqcha yozishdan ozod qiladi).

- Test savollari tuzish.
- “Tayanch” iboralarni ishlab chiqib, talabalarga ularni mukammal o‘zlashtirishda k maktashish.
- talabalarni zamonaviy kompyuter dasturlari asosida tayyorlangan slaydlar bilan ko‘rgazmali ma’ruza qilishga o‘rgatish kabi usullardan foydalanish mumkin.

MUSTAQIL TA’LIMNI AMALGA OSHIRISH

Talaba mustaqil tayyorlanganda fakulteti o‘quv kursi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- tarqatma materiallar bo‘yicha fakultativ o‘quv kurs mavzularni o‘zlashtirish. Bunda o‘qituvchi asosiy materialning bayon qilinishiga alohida ahamiyat berishi lozim bo‘ladi. Tarqatma materiallar hajmi har bir mavzu bo‘yicha 3-5 sahifa bo‘lishiga erishish kerak. Bunday ish natijalari reyting nazoratining muvofiq bosqichlarida tekshiriladi.

- O‘qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishlash. Bu usul mashg‘ulotlar hamda mustaqil ishga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida qo‘llanilishi mumkin.

- O‘z-o‘zini baholash orqali bilimni uzluksiz nazorat qilish. Talaba maxsus formula yordamida o‘z bilimni o‘zi baholaydi va maxsus nazorat daftarlariga qayd etib boradi.

- Fakultativ o‘quv mavzulari bo‘yicha adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish, qo‘shimcha adabiyotlar ishlash hamda ularni o‘rganish;

- Talabalarining mustaqil ta’lim va taqdimot bilan bogliq holda fakultativ o‘quv kursining muayyan mavzularni chuqur o‘rganish. Mustaqil ishning bu shakli barcha semestr talabalariga tavsiya etiladi.

- Internet materiallari.

- Audio manbalar.

- Axborot-resurs markazlaridagi mavjud davriy matbuot materiallari.

- Avtomatlashtirilgan o‘rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash. Bu mashg‘ulotlar talabani bilimlarni yanada mustahkamlaydi, tafakkurini boyitadi

TAQDIMOTLARNI AMALGA OSHIRISH

Taqdimotlar fakultativ o‘quv kursda olingan bilim, malaka va ko‘nikmaning amalda qo‘llanilishi, ya’ni yangi shaxs madaniyati tarziga aylanganligi darajasini ko‘rsatuvchi indikator vazifasini o‘taydi. Taqdimotlar o‘quv taqvimiy rejada ko‘rsatilgan mavzular doirasida tavsiya etilgan mavzularga bag‘ishlanadi. Talaba mavzuni tanlashga imkon beriladi.

Taqdimotga tayyorlanish jarayonida talabaga quyidagi tavsiyalar va ko‘mak beriladi :

- fakultativ o‘quv kursi mavzulari bo‘yicha adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish, qo‘shimcha adabiyotlar ustida ishlash hamda ularni o‘rganish.

- internet materiallarini topish va unumli foydalanish;
- audivizual manbalardan foydalanish;
- axborot resurslari markazidagi mavjud davriy matbuot materiallaridan foydalanish.

TAVSIYA ETILADIGAN TAQDIMOT MAVZULARI:

1. Abdulla Qodiriy hayoti;
2. Abdulla Qodiriyning ilk ijodi
3. Abdulla Qodiriy – birinchi o‘zbek romannavisi
4. Abdulla Qodiriy she’rlari
5. Abdulla Qodiriy hikoyalari
6. “O‘tkan kunlar” romanida tarix tasviri;
7. “Mehrobdan chayon” romanida ishq motivi
8. Abdulla Qodiriy va “Mushtum”
9. Julqunboy va matbuot
10. Abdulla Qodiriyning “Baxtsiz kuyov” dramasi
11. Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida.
12. Abdulla Qodiriy – publitsist
13. Abdulla Qodiriyning “Obid ketmon” qissasi
14. Abdulla Qodiriy – tarjimon
15. Adib asarlarining dunyo tillariga tarjima qilinishi
16. Abdulla Qodiriy ijodini o‘rgangan o‘zbek olilmari
17. Adib ijodining xorijda o‘rganilish.
18. Abdulla Qodiriy va o‘zbek adabiy tili.
19. Abdulla Qodiriyning adabiy tanqidga munosabati
20. Abdulla Qodiriy va uning zamondoshlari
21. Abdulla Qodiriy va Cho‘lpon
22. Abdulla Qodiriy farzandlari
23. Habibulla Qodiriyning “Otam haqida” kitobi
24. Mas’ud Abdullaevning “O‘tganlar yodi” kitobi
25. Abdulla Qodiriy va zamonamiz

VIII. FAKULTATIV KURS MAVZULARINING QISQACHA MAZMUNI

MA'RUZALAR

Birinchi mashg'ulot: Abdulla Qodiriy hayoti.

O'tkazish shakli: ma'ruza.

O'qituvchi talabalarni Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi bilan aloqador eng muhim va asosli ma'lumotlarni tanishtiradi. Abdulla Qodiriy tavallud topgan oila, muhit, uning yuz yoshadan oshib vafot etgan otasi va otasidan eshitgan Turkiston tarixi, ta'lim va tahsil yillari xususida aytib o'tadi. Ijodkor yashagan tarixiy sharoit va davr ijtimoiy-siyosiy jarayonlari to'g'risida tasavvur uyg'otadi.

(Shu o'rinda Abdulla Qodiriy hayoti yo'li yoritilgan multimedia materiallari namoyish etiladi)

Interfaol metod

Mazkur mashg'ulotda o'qituvchi Didaktik o'yin texnologiyasi (Matbuot konferensiyasi)dan foydalanadi. Matbuot konferensiyasi darsi o'qituvchining kirish so'z bilan ochiladi. U kirish so'zida darsning mavzusi, maqsadi va borishi bilan talabalarni tanishtirib, ushbu matbuot konferensiyasi Abdulla Qodiriy hayot yo'lining muhim jihatlarini yoritish, ta'lim olgan dargohlariga doir masalalarni tahlil qilish, adib hayotini o'rganilishga bag'ishlanishi, konferensiyada faylasuf-jamiyatshunos olimlar, san'at va davlat arboblari, soha mutaxassislari, shuningdek, respublikamiz ommaviy axborot vositalarining muxbirlari ishtirok etayotganligini qayd etadi.

“Matbuot konferensiyasi”da muxbirlarning rolini bajarayotgan talabalar olimlarga quyidagi savollar bilan murojaat etishlari mumkin:

1. Abdulla Qodiriy tavallud topgan ijtimoiy muhit to'g'risida nimlar bilasiz?
2. Abdulla Qodiriyning ilk o'qish yillari, madrasa tahsini to'g'risida gapirib bering
3. Abdulla Qodiriy ijodi bo'yicha qanday tadqiqotlar bor?
4. Abdulla Qodiriy birinchi marta qamlagani sabablarini tushuntiring.

Qo'llash: Abdulla Qodiriy hayoti yo'lining o'ziga xos jihatlarini belgilab olishda hamda “Milliy uyg'onish adabiyoti”, “O'zbek adabiyoti tarixi”, “Pedagogika”, “Tarix”, “Milliy matbuot” fanlarining tegishli mavzulariga qo'llash mumkin.

Natija: Abdulla Qodiriy hayot yo'li to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi. Abdulla Qodiriy ta'lim olgan muhit, q ilk qamalgani va qatl etilganiga doir ma'lumotlardan xabardor bo'ladi.

Tayanch tushunchalar: Abdulla Qodiriy, madrasa, rus-tuzem maktabi, jadid adabiyoti, milliy uyg'onish adabiyoti, Turkiston, ma'rifat, madaniyat, istiqloq, gazeta, millatparvar.

Ikkinchi mashg‘ulot: Abdulla Qodiriyning ilk ijodi

O‘tkazish shakli: ma’ruza.

O‘qituvchi Abdulla Qodiriy ijodining avvalgi pallasi yuzasidan ma’lumotlar beradi. XX asr boshlaridagi matbotda adibning bosilgan asarlar, she’rlari, dastlabki hikoyalari, shuningdek, “Baxtsiz kuyov” dramasiqa doir qarashlarni yoritib beriladi.

(Shu o‘rinda Abdulla Qodiriyning ilk ijodi yoritilgan tegishli multimedia materiallari namoyish etiladi)

Interfaol metod

Yoshlar uch guruhga bo‘linib, 1-guruh pedagog, 2-guruh ta’lim oluvchi, 3-guruh esa kuzatuvchi mansub vakillar sifatida ishtirok etishadi. Mashg‘ulot davomida olingan tushunchalar asosida adib ijodining ilk pallasi xususida fikr yuritishadi. Talabalar tomonidan bildirilgan fikrlarning asosli ekanligiga qarab ruhan rag‘batlantiriladi.

Qo‘llash: tajribali pedagog, san’atshunos, tarixchi mutaxassislar bilan birgalikda interfaol uslubda mashg‘ulot olib boriladi.

Natija: Abdulla Qodiriyning adib sifatida olib borgan ishlari, yozgan asarlari, o‘zbek milliy adabiyotida tutgani o‘rni, ahamiyatini tushunib yetadilar.

Tayanch iboralar: she’r, drama, hikoya, sahna, teatr, obraz, syujet.

Uchinchi mashg‘ulot: Abdulla Qodiriy romanlari

O‘tkazish shakli: ma’ruza.

O‘qituvchi talabalarni Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” romanlari bilan tanishtiradi. Adib romanlarining o‘ziga xos jihatlari, obrazlari, tasviriy vositalari, poetik nutqi hamda unda aks ettirilgan g‘oyalar tahlil qilinadi.

(Shu o‘rinda Abdulla Qodiriy mavzusidagi multimedia materiallari namoyish etiladi)

Interfaol metod

O‘qituvchi yoshlarga FSMU texnologiyasining to‘rt bosqichi yozilgan qog‘oz varaqlarini tarqatadi va yakka tartibda ularni to‘ldirishni iltimos qiladi.

Vazifa. Abdulla Qodiriy romanlarida qanday g‘oyalarni aks ettirgan? savoli bo‘yicha quyida fikrlaringizni bayon eting?

F – fikringizni bayon eting;

S – fikringiz bayoniga biron sabab ko‘rsating;

M – ko‘rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring;

U – fikringizni umumlashtiring.

Yoshlarning o'zlari yozgan fikrlarini o'qib himoya qilishlari so'raladi. Bu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan birga, bahslashish madaniyatini o'rgatadi. O'qituvchi esa ularning fikrlarini to'g'ri yo'naltirish orqali mavzuni to'g'ri anglashlariga harakat qiladi.

Qo'llash: adabiyotshunos, tarixchi, dinshunos mutaxassislar bilan birgalikda interfaol uslubda mashg'ulot olib boriladi.

Natija: yoshlarda Abdulla Qodiriy romanlari haqida tushuncha va tasavvurlar shakllanadi. Abdulla Qodiriy milliy adabiyotimiz rivojiga qo'shgan ulushiga, adib badiiy mahoratiga baho berish imkoniga ega bo'ladilar.

Tayanch tushunchalar: Abdulla Qodiriy, romani, "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon", obraz, g'oya, prototip, syujet, monolog, diolog, talqin, tahlil.

MULOQOTLAR

Birinchi mashg'ulot: Abdulla Qodiriy she'rlari, "Baxtsiz kuyov" dramasi.

O'tkazish shakli: muloqot.

Turkiston madaniy-ma'rifiy hayotida jadid adiblarining tutgani o'rni, Abdulla Qodiriyning "To'y", "Fikr aylagil" va boshqa she'rlari, "Baxtsiz kuyov" dramasi bilan birgalikda o'zaro qiyosiy ravishda o'rganiladi. Bu asarlarida ilgari surilgan g'oyalar tahlil qilinadi.

Interfaol metod

Mashg'ulot zamonaviy pedagogik texnologiyaning "Munozarali dars" metodi asosida o'tkaziladi. Mashg'ulot o'qituvchining kirish so'zi bilan ochiladi. O'qituvchining kirish so'zi tugagandan so'ng "Munozarali dars"ning talablarini tushuntiradi. Bu quyidagilardan iborat:

1. Guruh talabalari kontingentdan kelib chiqqan holda 3 yoki 4 jamoaga ajratiladi.

2. Jamoa o'ziga nom tanlaydi (jamoaning nomi falsafiy-estetik ma'noni anglatishi kerak)

3. Har bir jamoa o'zining yetakchi liderini saylaydi. Jamoaning fikrini lider ayta olishi mumkin, qo'shimchalar liderning fikridan keyin bildiriladi.

4. Baholashda jamoa a'zolarining javobidagi mustaqil fikrlash, ilmiy asoslash, hayotiy isbotlash masalalari ham hisobga olinishi ta'kidlanadi.

Bir jamoa ikkinchi jamoa fikrini tanqid qilishi, sharhlashi, qo'shimcha fikr bildirish va ilmiy savollar bilan murojaat qilishi mumkin. Munozarali darsda jamoalarga quyidagi savollar beriladi:

1-jamoaga. Abdulla Qodiriy she'rlarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.

2-jamoaga. Abdulla Qodiriyning ilk hikoyalariga xususiyatlar nimalardan iborat?

3-jamoaga. Abdulla Qodiriyning “Baxtsiz kuyov” dramasi va milliy urf-odatlar haqida gapirib bering.

Qo‘llash: mashg‘ulot tarixchi, adabiyotshunos, jurnalist, huquqshunoslar, ma’naviyat targ‘ibotchilari, hayot tajribasiga ega bo‘lgan mutaxassislar bilan birgalikda olib boriladi.

Natija: Talabalar Abdulla Qodiriy ijodi bilan Turkiston jadidchiik harakatning o‘zaro uyg‘un jihatlari, she’riy merosi va dramatik asari yuzasidan yangi bilimlarga ega bo‘lishadi.

Tayanch tushunchalar: Abdulla Qodiriy, she’r, hikoya, drama, badiiy g‘oya, dramatik vaziyat, she’riy nutq, monolog, diolog.

Ikkinchi mashg‘ulot: Abdulla Qodiriyning publitsistik asarlari

O‘tkazish shakli: muloqot

Abdulla Qodiriyning matbuotdagi faoliyati, “Mushtum” jurnalidagi publitsistik maqolalar yozgani, buning natijasida “feletonlar qiroli” nomini olgani va adib yozgan maqolalarining qadr-qiymati muhokam qilinadi. “Yig‘indi gaplar” maqolasiga urg‘u beriladi. “Diyori bakr” kitobiga kirgan kichik asarlariga e’tibor qaratiladi.

Interfaol metod

Mazkur mashg‘ulotda o‘qituvchi Didaktik o‘yin texnologiyasi (Matbuot konferensiyasi)dan foydalanadi. Matbuot konferensiyasi darsi o‘qituvchining kirish so‘z bilan ochiladi. U kirish so‘zida darsning mavzusi, maqsadi va borishi bilan talabalarni tanishtirib, bugungi matbuot konferensiyasi “Abdulla Qodiriyning publitsistik asarlari” masalasini yoritish, bu asarlar mazmunini o‘rganish masalalariga bag‘ishlanishini qayd etadi. Konferensiyada adabiyotshunoslar, faylasuf-jamiyatshunos olimlar, san’at va davlat arboblari, soha mutaxassislari, shuningdek, respublikamiz ommaviy axborot vositalarining muxbirlari ishtirok etayotganligini qayd etadi.

“Matbuot konferensiyasi”da muxbirlarning rolini bajarayotgan talabalar olimlarga quyidagi savollar bilan murojaat etishlari mumki:

1. Abdulla Qodiriy va matbuot mavzusida nimalar bilasiz?
2. Abdulla Qodiriy qaysi matbuot nashrlarida ishlagan?
3. Adibni qamoqqa olishga sabab bo‘lgan maqolasi xususida gapiring.

Qo‘llash: tarixiy haqiqatni to‘g‘ri anglab yetishda, Abdulla Qodiriy faoliyatining o‘ziga xos jihatlari belgilab olishda hamda “Milliy uyg‘onish adabiyoti”, “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “Tarix”, “Milliy matbuot” fanlarining tegishli mavzulariga qo‘llash mumkin.

Natija: Abdulla Qodiriy ijodining alohida bir bosqichi yuzasidan tasavvurga ega bo‘ladi. Adibning publitsistik merozi o‘z davri ijtimoiy-ma’rifiy hati uchun naqadar muhim ahamiyat kasb etganidan xabardor bo‘ladi.

Yozuvchining adabiy maqollari bugungi kun muammolari bilan bog‘lab talqin etish ko‘nikmalari paydo bo‘ladi.

Tayanch tushunchalar: Abdulla Qodiriy, Julqunboy, hajviya, feleton, jamiyat, “Yig‘indi gaplar”, ma’rifat, madaniyat.

MUNOZARALAR

Birinchi mashg‘ulot: “O‘tkan kunlar” romani va uning kinotalqini
O‘tkazish shakli: munozara.

Mashg‘ulot avvalida Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani juda ko‘p nashr bo‘lgani, uning ikki marta kinotalqini maydonga kelgani va bu ikki san’at turiga mansub asarlar o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlar yuzasidan ma’lumot berib beriladi.

Interfaol metod

Mashg‘ulot zamonaviy pedagogik texnologiyaning “Munozarali dars” metodi asosida o‘tkaziladi. Mashg‘ulot o‘qituvchining kirish so‘zi bilan ochiladi. O‘qituvchining kirish so‘zi tugagandan so‘ng “Munozarali dars”ning talablarini tushuntiradi. Bu quyidagilardan iborat:

1. Guruh talabalari kontingentdan kelib chiqqan holda 3 yoki 4 jamoaga ajratiladi.

2. Jamoa o‘ziga nom tanlaydi (jamoaning nomi adabiy-estetik ma’noni anglatishi kerak)

3. Har bir jamoa o‘zining yetakchi liderini saylaydi. Jamoaning fikrini lider ayta olishi mumkin, qo‘shimchalar liderning fikridan keyin bildiriladi.

4. Baholashda jamoa a’zolarining javobidagi mustaqil fikrlash, ilmiy asoslash, hayotiy isbotlash masalalari ham hisobga olinishi ta’kidlanadi.

Bir jamoa ikkinchi jamoa fikrini tanqid qilishi, sharhlashi, qo‘shimcha fikr bildirish va ilmiy savollar bilan murojaat qilishi mumkin. Munozarali darsda jamoalarga quyidagi savollar beriladi:

1-jamoaga. “O‘tkan kunlar” romanining o‘zbek adabiyoti tarixida tutgan o‘rni xususida fikr bildiring.

2-jamoaga. “O‘tkan kunlar”dagi bosh va ikkinchi darajali obrazlarga tavsif bering.

3-jamoaga. Roman va uning kino talqini o‘rtasidagi farqlarni gapirib bering

Qo‘llash: mashg‘ulot tarixchi, adabiyotshunos, jurnalist, ma’naviyat targ‘ibotchilari, hayot tajribasiga ega bo‘lgan mutaxassislar bilan birgalikda olib boriladi.

Natija: Talabalar san’atning ikki turi va uning spetsifik xususiyatlari, roman va kino talqidagi eng muhim qirralar yuzasidan yangi bilimlarga ega bo‘lishadi.

Tayanch tushunchalar: Abdulla Qodiriy, “O‘tkan kunlar”, roman, kinotalqn, asil matn, ssenariy.

Ikkinchi mashg‘ulot: “Obid ketmon” qissasi va tarixiy davr
O‘tkazish shakli: munozara.

O‘qituvchi talabalarga adibning ikki mashhur tarixiy romanidan keyin zamonaviy mavzuda maydonga kelgan “Obid ketmon” qissasining mazmun-mohiyati, qissada XX asrning 30-yillariga xos hayot tarzi aks ettirilganiga, asarning g‘oyaviy maqsadlarini bayon qilib beradi. Qissadagi Obid obrazi bilan bog‘liq jihatlarga e‘tibor qaratiladi.

Interfaol metod

Mashg‘ulot zamonaviy pedagogik texnologiyaning “Insert texnikasi” metodi asosida o‘tkaziladi. Mazkur metod talabalarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod talabalar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi. O‘qituvchi yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn talabalarga tarqatadi. Talabalarga individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

“V” – tanish ma’lumot.

“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.

“Q” – bu ma’lumot men uchun yangilik.

“–” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?

Belgilangan vaqt yakunlangach, talabalar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

Natija: Talabalar adibning bu qissasi muhokamalaridan keyin badiiy asarda zamon tasviri, badiiy asarning ijtimoiy mazmuni, shuningdek, yaqin tarixda bo‘lib o‘tgan jamiyat hayotidagi o‘zgarishni badiiy asar vositasida anglab yetadilar.

Tayanch tushunchalar: qissa, “Obid ketmon”, Obid obrazi, qissadagi boshqa obrazlar, kolxoz.

TAQDIMOTLAR

Birinchi mashg‘ulot: Abdulla Qodiriy asarlarining xorij tillariga tarjimalari
O‘tkazish shakli: taqdimot

Taqdimotda Abdulla Qodirining o‘zi tarjima bilan shug‘ullangani va adib asarlarining yaqin qardosh va uzoq xorij tillariga tarjima qilingani taqdimot yo‘sinida misollar bilan tushuntiriladi.

Abdulla Qodiriy rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilgan asarlari asosida taqdimot tayyorlanadi. Adibning boshqa tillarga o‘girilgan romanlari va kichik asarlari taqdim etiladi.

Qo‘llash: mashg‘ulot pedagog, tarixchi, adabiyotshunos, jurnalist, ma’naviyat targ‘ibotchilari, hayot tajribasiga ega bo‘lgan mutaxassislar bilan birgalikda olib boriladi.

Natija: Talabalar o‘zbek tarjima adabiyoti tarixi, adib asarlarining dunyoning turli tillariga tarjima qilingani to‘g‘risida kengqamrovli bilimlariga ega bo‘lishadi.

Tayanch tushunchalar: Abdulla Qodiriy, tarjima, tarjimon, rus tili, xorij tillar, roman, hikoya.

Ikkinchi mashg‘ulot: Abdulla Qodiriy dunyo olimlari nigojida

O‘tkazish shakli: taqdimot

Taqdimotda Abdulla Qodiriy ijodining o‘rganilishi tarixi bir asrga tengligi, bunda dunyo olimlarining olib borgan tadqiqotlari ham alohida o‘rin tutishi talqin qilib beriladi. O‘zbek va xorij qodiriyshunosligi taqdim etiladi.

Qo‘llash: qodiriyshunoslik, o‘zbek adabiyoti tarixi, ilmiy-tadqiqot metodologiyasi fanlarining amaliy mashg‘ulotlarida qo‘llash mumkin.

Natija: Abdulla Qodiriy ijodiga o‘zbek olimlari, shu bilan birga xorijlik Edvard Olvort, Ingeborg Baldauf kabi olimlarning munosabat bildirib yozgan asarlari mazmun-mohiyatini anglab yetadi.

Tayanch tushunchalar: qodiriyshunoslik, olim, talqin, metod, struktural, biografik, xorij, adabiyotshunoslik.

IX. O‘QUV-USLUBIY ADABIYOTLAR VA ELEKTRON RESURSLARI RO‘YXATI:

Asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar

1. Карим Б. Абдулла Қодирий феномени (монография). Тошкент. «Info Capital Group» нашриёти. 2019.
2. Абдулла Қодирий. Асарлар. 5 жилдлик. Тошкент. “Info Capital Group”. 1917 йил.

Қўшимча адабиётлар

29. Абдулла Қодирий. Тошпўлат тажанг нима дейди? Калвак махзумнинг хотира дафтарида. – Т., 1993.
30. Абдулла Қодирий. Ўткан кунлар. Мехробдан чаён. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1994.
31. Абдулла Кадыри. Минувшие дни. Роман. Ташкент. Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма. 1984.
32. Абдулла Қодирий. Суддаги нутқ // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1989 йил. 1 декабрь.
33. Абдулла Қодирий замондошлари хотирасида. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1986.
34. Aziz Merhan. Abdulla Qodiriy ve Ozbek Romaninin Dogusu. Ankara. Grafiktr. 2008.
35. Балдауф И. XX аср ўзбек адабиётига чизгилар. – Т.: Маънавият, 2001.
36. Боқий Н. Қатлнома. – Т.: Нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1992.
37. Заки Валидий Тўғон. “Буюк турк эли Туркистон ва яқин тарихи” (2-нашри). Истанбул. 1981.
38. Карим Б. Қодирий қадри. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2003.
39. Карим Б. Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур. – Т.: “Akademnashr”, 2014.
40. Карим Б. “Ўткан кунлар” ибрати. Рисола. Тошкент. “Mashhur-press” нашриёти. 2019.
41. Карим Б. Икки даҳо – икки бебаҳо. Тошкент. Ўзбекистон миллий энциклопедияси” нашриёти. 2020 йил.
42. Клайнмихел З. Ёзувчи Абдулла Қодирийнинг Ўзбекистон маънавий ва маданий ҳаётидаги ўрни. Vamberg Mittelasiensstudien. – Berlin, 1994.
43. Мирвалиев С. Абдулла Қодирий кашфиёти. – Т.: MASHHUR-PRESS, 2018.
44. Норматов У. Қодирий боғи. – Т.: Ёзувчи, 1995.
45. Норматов У. “Ўткан кунлар” хайрати. – Т.: Ўқитувчи, 1996.
46. Ойбек. Абдулла Қодирийнинг ижод йўли. – Т.: ЎзССР фанлар комитетининг нашриёти, 1936.

47. Олмос Улви. Ўзбек адабиёти. Боку, “Илм ва таҳсил” нашриёти, 2016.
48. Ризаев, Ш. Жаҳид драмаси. Тошкент: Шарқ, 1997.
49. Eden Nabi. Transitional Central Asian Literature: Tajik and Uzbek prose fiction from 1909 to 1932. Columbio University, 1975.
50. Edvard Allworth. Uzbek Literary politics. London-Paris, 1964.
51. Қодирий Ҳ. Отам ҳақида. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1983.
52. Абдулла Қодирий замондошлари хотирасида. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986.
53. Қодирий Ш. 37-хонадон. Тошкент. “DAVR PRESS”, нашриёти. 2009.
54. Қосимов Б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Маънавият, 2004.
55. Қўшжонов М. Абдулла Қодирийнинг тасвирлаш санъати. – Т.: Фан, 1966.
56. Қўшжонов М. Ўзбекнинг ўзлиги. – Т.: Халқ мероси, 1994.

Elektron resurslar:

1. www.ziyonet.uz
2. www.e-tarix.uz
3. www.ziyuz.om
4. www.qr.natlib.uz
5. www.media.natlib.uz
6. www.diss.natlib.uz